

FARZAND SHAXSIYATI

Shonazarova Lobar G'aybullayevna
Navoiy Davlat Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ayrim farzandlarimiz ichki nizolari tufayli, boricha qabul qilinmagani, har doim solishtirilib kimdirlarga uxshamagani uchun koyilganligi sababli o'zligini topishda qiynaladi. Borligicha qabul qilinmagani sababli yuqorida keladigan mehrni tushunmasdan ulg'ayadi. Shu sababli qo'shtirnoq ichidagi ayrim ota-onalarga ham farzand tarbiyasi ilmini berishimiz lozimdir. Millatni uyg'otish-uyg'onganlarni vazifasi. (Abdulhamid Cho'lpon)

Kalit so'zlar: ishonch, farzand, ota-ona, tarbiya

Bir ojiz, beg'ubor farzand dunyoga kelarkan, misoli oq qog'oz kabi bo'ladi. Hali sahifalari qoralanmagan, nima yaxshi-yu, nima yomonni farqlay olmaydigan, hattoki til-zaboni ham shakllanmagan bir kichkina farishta dunyoga keladi. Bu farishta ulg'ayib, esini tanib borarkan shaytoniy xirslarga berilib ketadimi yoki sochini uchigacha gunohga botadimi bularning hamma-hammasinga noto'g'ri berilgan tarbiya, ota-onasining e'tiborsizligi asosiy sabab qilib ko'rsatiladi. Bizda savol tug'iladi...?

Bir oilada tug'ilib, bitta hovlida o'sgan, bitta havodan nafas olib, bitta ota-onaning farzandi bo'lgan insonlar nimaga ikki xil?

Chunki ularga bo'lgan ota-onaning munosabati ikki xil. Ona aytadiki falonchi farzandimning qo'lidan hamma ro'zg'or ishlari keladi, epli bu farzandim esa boshlagan ishini eplolmaydi. Hattoki farzandlarining oldida ham bunday taqqoslashlar, bir-biridan ustun qo'yilib kansitilishlar ko'p bo'ladi.

Aytingchi bunday kansitilishlar ko'z oldida bo'lgan farzand qanday qilib kamchiliginini to'g'irlay olsin. Bunday taqqoslashlar bo'lgandan keyin kamchiliginini to'g'irlaganda ham ichidagi alamzadalik tark etmaydi, o'ta agressif bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

Biz o'ylaymizki bolani xarakteri aqlini tanib borgan sari shakllanadi deb, lekin farzand hattoki 1 yosh bo'lganda gapira olmasa ham u tafakkur qila oladi, so'zlarni ilg'ab qolish qobiliyati shakllangan bo'ladi. Bola ulg'aygan sari bu ilg'ab olgan so'zlarini atrofidagi insonlarning xarakterlarini o'zida namoyon qilib o'zining ayni paytgadi xarakterini shakllantiradi.

Men ishonch bilan aytalamanki insonlarning xarakterlari uning atrofidagi insonlarga bevosita va bilvosita bog'liq. Muhit o'zgargan sari, atrofdagi insonlar o'zgargan sari farzand ham o'zgara boradi. Farzand ulg'aygan sari atrofidagi insonlardan xarakter tera boshlaydi. Xalqimizda ham og'izdan og'izga o'tib kelayotgan bir chiroqli ibora ham bor "Do'stlaringni kimligini ayt, seni kimligingni aytib beraman" singari.

Farzandning ulg'ayish davrlari bir qancha bosqichlarga bo'linadi. Dastlabki bosqichlardan namuna davrini to'liqroq yoritib bersam. Bu davr normal rivojlanib kelayotgan bolaning 2-3 yoshiga to'g'ri keladi. Bu davrda namunani faqatgina onasidan va oila a'zolaridan oladi. Bu davr judayam xavfli davrlardan hisoblanadi. Oil

a'zolarining og'zidan chiqadigan har bir gaplarini ilib olib gapirib yuradigan, boladagi ilk xarakter rivojlanadigan va namoyon qiladigan davrlardan hisoblanadi.

Agarda bu bosqichda oila qiyin vaziyatlarning xususan: moliyaviy qiyinchilik yoki turmushdagi kelishmovchiliklarni boshidan kechirayotgan bo'lsa bu ham bolaning xarakteriga ta'sir etmasdan qo'ymaydi. Farzand o'ylaydiki, hayot mana shunday qiyinchiliklardan iborat, yaxshi kunlar yo'q deb o'ylaydi. Unday oila farzandlarida o'tish davri (balog'ay yoshi) qiyinchiliklari ertaroq namoyon bo'lib uzoq davom etishi mumkin.

Bolalar nima yaxshi-yu yomonligini kattalardan o'rganadi. Kattalarni og'zidan so'z teradi. Chaqaloqlarga e'tibor qilganmisiz: ular onasi yoki boshqa insonlar yig'lasa ularga qo'shilib yig'laydi, kulib xursand bo'lsa sababini bilmasa ham xursand bo'laveradi. Bolalar ham kattalar nima qilsa shuni to'g'ri deb o'ylaydi.

Meni ham yoshligm ko'zyoshlar bilan, hayotning naqadar achchig'-u beshavqatligini eshitish bilan o'tgan. Menga tengqur bo'lgan bolalar ko'chada koptok tepib, ko'kda varrak uchirib yurgan pallada men hech qanday sabablarsiz uyda yig'lab o'tirardim. Judayam agressiv bo'lganman. Bunga asosiy sabab ko'p ko'z yosh ko'rganligim deb o'ylayman. Katta insonlar hayot qiyinchiliklaridan aziyat chekib, siqilib ko'z yosh qilsa kimdir kelib uni yupatadi. Yonida bunday vaziyatni tomosha qilib turgan farzand o'ylaydiki:

-Ha, demak yig'lash kerak ekan, insonlarni rahmini keltirsak atrofimizda girdikapalak bo'larkan.

Yana bir misol keltirmoqchiman, yaqinda "You tube" ijtimimoiy tarmog'ida bir videorolikka ko'zim tushdi. 1-soatu 25 daqiqalik videoni atigi 10 soniyasini ko'rdim xolos, lekin o'zimga kerakli xulosa chiqarishimga shu 10 soniya yetarli bo'ldi. Buni qisqacha mazmuni shundan iboratki: Ona ko'zgu yonida o'ziga mahliyo bo'lib, go'zalligidan xushnud bo'lgancha pardoz qilmoqda, yonida yoshgina chamasi 2.5 yoshlardagi qizcha ham onasiga qarab xursand bo'lgancha lab bo'yog'ini labiga suryapti.

Xulosa o'zingizdan. Yana ham farzandlaringizni solishtirishga davom etmoqchimisiz. Farzandlaringiz sizni ko'zgudagi aksingizdir. Endigina unib, o'sib kelayotgan niholni ham parvarish qilsangiz undan hosildor daraxtni kashf etasiz va uning mevasidan baxramand bo'lasiz. Agarda u niholni parvarish qilmasangiz ,ko'kka bo'y cho'zishdan to'xtaydi , kundan kunga so'lib ,jamiyat uchun keraksiz xas-cho'p bo'lib qolishdan boshqasiga yaramaydi.

Bundan kelib chiqadiki "Yaxshi bog'bon parvarish qilgan daraxtgina sermahsul hosil berishi mumkin"

Farzand tarbiyasida ham ota-onaning roli anashu bog'bon kabi juda muhimdir .Shu vatanda tug'ilib ,o'z kindik qoni to'kilgan vatanga xiyonat qiladigan , eng go'zal go'shalarda buzg'inchilik qilib, ota-onasining yuziga oyoq qo'yadigan farzandlar ham bejizga bu yo'lga kirmagan .Miyasidagi bunday bo'shliqlar, terroristik g'oyalar ham bejizga paydo bo'lmaydi. Bularning ham barchasi bolalikka bevosita bog'liqdir . Otasining yoki onasining o'ta vahshiy muomalasi , bolalikda odam o'rnida ko'rilmasdan pas nazar bilan qaralgani ,o'zini zo'rligini isbotlash aurasi,aybdorlik ruhida tarbiyalangani ,endi o'sib,gullab kelayotgan yosh niholni to'g'ri emas egri ,qiysi bo'lib o'sishiga sabab bo'ladi .

Ona yoki Ota degan oliy maqomga mos bo'lsak unga o'z yurish turishimiz, xarakterimiz, odob-axloqimiz bilan unga o'mnak bo'la olsak biz shundagina farzandimizdan yuqori natijalarni kutishimiz mumkin Hech unutmaylik aziz kitopxon ."Qush uyasida ko'rghanini qiladi"

Farzandga hech kim ishonmagan taqdirda ham uning birinchi o'rindagi ishonch beradigani ,unga kuch quvvat beruvchisi ,qanday fikr bildirishidan qat'I nazar qo'llab quvvatlaydigan motivatori onasi bo'lishi kerak . Chunki o'zbek oilalarida farzand tarbiyasi asosan onaga yuklatiladi . Davlat muassasalaridagi kasbi-kori nima bo'lishidan qat'I nazar birinchi o'rindagi vazifasi "farzand tarbiyasi" hisoblanadi . Yuqoridagi holatda ham kamchiliklari yuziga salinmasdan , nima yaxshi-yu nima yomonligi o'rgatilganda ,fikrlari eshitilib qo'llab-quvvatlanganda ,eng asosiysi unga ishonch berilganda edi og'ziga temir zanjir tortilmagan bo'lardi.Balki Farzandning kelajakdagi hayotida ham mustaqil bo'lolmasligiga olib kelar bu zanjirlar . Ona ham o'zi bilmagan holatda o'z farzandining zaboniga temir zanjir soladi Bu zanjirlar yillar o'tib zanglab uning sog'ligiga ham ta'sir o'tkazadi. Uning qo'llab quvvatlanmagan fikrlari ichida qolgan gaplari esa yillar mobaynida mog'orlab ketishi turgan gap.

Xulosa: Mening qisqacha xulosam shundan iboratki, farzand qanday bo'lib tug'ilishidan qat'i nazar, nuqsonlimi, sog'lommi, nima bo'lganda u farzand, ollohnинг sizga bergen eng go'zal tuhfalaridan biridir. Uni kamchiliklarini yuziga solib, hammani oldida izza qilganingiz bilan uni kamchiliklari to'g'irlanib qolmaydi. Eng avzali uni kamchiliklarini to'g'ri tushuntirib, uni qo'llab quvvatlashdir. Farzand o'zligini tanib olgunga qadar, o'zining hayotdagi missiyasini tushunib yetgunga qadar ota-onasining ishonchini, uni qo'llab quvvatlashlarini his qilib turishi kerak.

Shundagina farzand yuqoridan keladigan ollohnini mehrini his qilishi mumkin. Uni mehr muhabbat bilan tilga olishi mumkin.

- 1) Masaru Ibuka "uchdan keyin kech"